



**Raqamlar:**

Qurilish ishlari hajmi  
– **2285,1 mld. so'm**

Yirik pudrat  
tashkilotlari ulushi  
– **1,3 %**

Kichik korxona va  
mikrofirmalar ulushi  
– **62,3 %**

Norasmiy sektor ulushi  
– **36,4 %**

**2019 yilning yanvar – iyun oylarida  
QURILISH ISHLARI**


2019 yilning yanvar – iyun oylarida Samarqand viloyatida **2285,1** mld. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan 2018 yilning shu davriga nisbatan **119,4** foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi **30,3** mld. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **157,5** foizni tashkil qildi.

Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi **1423,8** mld. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **144,0** foizni tashkil qildi.

Norasmiy sektorda qurilish montaj ishlari hajmi **831,0** mld. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan **90,5** foizni tashkil etdi.

**Qurilish tashkilotlari tomonidan  
bajarilgan qurilish ishlari**





## ***Qurilish ishlaringning faoliyat turlari bo'yicha tarkibi***

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringning asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlardan tashkil topdi. Ularning hajmi **1694,3** mlrd. so'mni yoki jami hajmga nisbatan **74,1** % ni, o'sish sur'ati **130,3** % ni tashkil etdi.



Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda **312,0** mlrd. so'mni yoki jami hajmga nisbatan **13,6** % ni, o'sish sur'ati **181,8** % ni tashkil etdi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari **278,8** mlrd. so'mni yoki jami hajmga nisbatan **12,2** % ni, o'sish sur'ati **3,4** m. ni tashkil etdi.

Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun mo'ljallangan uy-joylarni qurish, avtomobil yo'llarini ta'mirlash, yangi qurilish, rekonstruksiya, ijtimoiy soha obyektlari (maktablar, maktabgacha ta'lim muassasalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqda.





## Iqtisodiy faoliyat turlarining mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari





## Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan **2016,5** mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining **88,2** foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning o'sish sur'atiga nisbatan **18,8** bandga ko'paydi.



Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan **268,6** mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish montaj ishlari hajmidagi ulushi **11,8** foizini tashkil qildi.




## Hududlar kesimida qurilish ishlari

	Jami mlrd. so'm	o'tgan yilga nisbatan, (%)	jamı hajmga nisbatan ulushi, (%)
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>2285,1</b>	<b>119,4</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
Samarqand sh.	729,3	121,8	31,9
Kattaqo'rg'on sh.	52,8	118,6	2,3
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	178,3	129,3	7,8
Bulung'ur	67,7	116,7	3,0
Jomboy	120,1	125,5	5,3
Ishtixon	120,5	120,4	5,3
Kattaqo'rg'on	88,2	115,1	3,9
Qo'shrabot	70,5	114,9	3,1
Narpay	90,2	110,7	3,9
Nurobod	53,5	117,1	2,3
Payariq	140,6	118,6	6,2
Pastdarg'om	141,1	114,5	6,2
Paxtachi	83,1	111,2	3,6
Samarqand	118,7	127,2	5,2
Tayloq	102,1	113,2	4,5
Urgut	128,4	112,5	5,6



## Hududlar kesimida qurilish ishlari

(mlrd. so'm)




Qurilish ishlari hajmini o'tgan yilga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichda bajarilishi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi. Jumladan: Samarqand shahrida – **729,3** mlrd. so'm, Oqdaryo tumanida – **178,3** mlrd. so'm, Pastdarg'om tumanida – **141,1** mlrd. so'm, Payariq tumanida – **140,6** mlrd. so'm hamda Urgut tumanida – **128,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.






## Hududlar kesimida qurilish ishlari (foiz hisobida)



Qurilish ishlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan eng yuqori darajadagi o'sish sur'atlari quyidagi hududlarda kuzatildi. Jumladan: Oqdaryo tumanida – **129,3** %, Samarqand tumanida – **127,2** %, Jomboy tumanida – **125,5** % va Samarqand shahrida – **121,8** % ni tashkil qildi.



## Hududlar kesimida qurilish ishlari (jami hajmga nisbatan foizda)



**Samarqand viloyat statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:  
Aloqa telefoni:

**I.Raxmatov**  
**(66) 235-60-82**